



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

2. UN-Habitat. *World Cities Report 2022: Envisaging the Future of Cities*. United Nations, 2022.

3. Arxipov, V. N. *Sovremennye problemy gradostroitelstva*. M.: Arxitektura-S, 2021.

4. OECD. *Smart Cities and Inclusive Growth*. OECD Publishing, 2020.

5. Koolhaas, R. *Generic City*. Rem Koolhaas Essays, 1995.

6. Baydjanov I.S. «Основные принципы устойчивого развития городов»
Izd. Ridero. ASIN : B07CG9SF2 M Publisher : Ridero Accessibility : [Learn more](#)
Publication date : April 19, 2018 .Language : Russian. File size : 65. 4 MB.
Enhanced typesetting : [Enabled](#). Word Wise : [Not Enabled](#). Print length : [815 pages](#). ISBN-13 :

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDAGI ME’MORIY INSHOTLAR BO‘YICHA MA’LUMOTLAR BAZASI

arx.f.d., prof. Durdieva G.S., k.i.x. Zargarov A.K.,
doktorant Kamalova D.Yu. - Xorazm Ma'mun akademiyasi

Annotatsiya

Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi me’moriy inshotlar bo‘yicha monitoring ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация

В статье представлены данные мониторинга архитектурных сооружений на территории Республики Каракалпакстан.

Abstract

The article presents monitoring data on architectural structures in the territory of the Republic of Karakalpakstan.

Kalit so'zlar

arxitektura, paxsadevor, qal'alar, xom g'isht, konservatsiya.

Ключевые слова

архитектура, глинобитная стена, крепости, сырой кирпич, консервация.

Kirish

Qadimiy Xorazm zaminida joylashgan hashamatli noyob paxsadevor arxitektura yodgorliklarining majmualari “ochiq osmon ostidagi muzeylar” hisoblanib, ular YUNESKOning alohida muhofaza qilinuvchi tarixiy yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan.

Asosiy qism

Janubiy Orolbo‘yi hududi hisoblangan – Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi paxsadevor me‘moriy yodgorliklarning soni 300 dan ortiqdir [1]. Bugungi kunda atrof muhitning salbiy ta’siri har qanday mustahkam inshootlarni ham ma’lum darajada yemirmoqda. Ayniqsa, qal’alar asosan paxsa, xom g‘isht - bloklardan barpo etilganligi uchun ularni konservatsiyalash ishlarini o‘z vaqtida doimiy monitoring kuzatuv ishlari asosida bajarishga to‘g‘ri keladi. Paxsadevor tarixiy obidalarining texnik holati bo‘yicha o‘tkazilgan monitoring natijalarining tahliliga asosan shuni alohida qayd etib o‘tib joizki, ekologiya va texnogen salbiy ta’sirlardan ularni saqlab qolish katta muammolar tug‘dirmoqda [3].



1-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumanida joylashgan. “Chilpiq” qal’a

Bir necha asrlar mobaynida bunyod etilgan tarixiy obidalar, me'morchilik va shaharsozlikda yaratilgan milliy an'analar unutilib yuborildi. Buning natijasida qanchadan - qancha tarixiy shaharlarning paxsadevor qal'alari, qo'rg'onlari va inshootlari yo'q qilib yuborildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan qadimiy Xorazm me'morchiligiga oid qal'alarning 40%i, jumladan Kegeyli tumanidagi "Iyshan qal'a" deb nomlanuvchi paxsadevor qo'rg'onining tomyopma qism, bolorlari umuman olib ketilgan, devorlarining 30%i yo'qolgan [2].

Beruniy tumani hududidagi noyob Kat qal'a devorlari esa butunlay yo'qolib, ayrim qismigina qolgan xolos. Ma'lumki, paxsadevorning "dushmani" atmosfera suvlari hisoblanadi. Qoraqalpog'iston va Xorazm vohasida yer osti suvlari sathi yuqoriligi sharoitni yanada murakkablashtiradi. Yer osti suvlarining kapilyarlar orqali ko'tarilishi sababli yer osti suvlarining tuzlanish darajasining yuqoriligi me'moriy obidalarining konstruksiyalariga bo'lgan agressiv ta'sirini yanada kuchaytiradi.

Yana shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, Qadimgi Xorazm yodgorliklarini o'rganish bo'yicha O'zR FA Qoraqalpog'iston filialining tarixchi va arxeologlari V.N.Yagodin, M.Mambetullaev, G'.Xodjaniyazov Yu.P.Manilov va boshqa bir qancha ilmiy xodimlar tomonidan 1952 yildan to hozirgi kungacha Mizdakxon, Dev kesgan, Chilpiq shahristoni (QQR), Xivadagi Tuproqqal'a, Ichan Qal'a, Shovotdagi Tuproqqal'alarda arxeologik tadqiqotlar amalga oshirilgan va risolalar chop qilingan. Biroq, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi me'morchilik inshootlarining qurilish usullari, ularda ishlatilgan qurilish materiallarining turlari, bugungi kundagi texnik holatlari tahlil qilinmagan, ular to'g'risida ma'lumotlar bazasi shakllantirilmagan.

Hozirgi davrgacha Qoraqalpog'istondagi paxsadevor me'moriy obidalari hakida to'liq ma'lumotlar yetarli bo'lmaganligi sababli ularni muhofaza qilish, qayta tiklash va ta'mirlash ko'p muammolar tug'dirmoqda. Birinchi navbatda bu muammo me'moriy obidalarining konstruktiv tizimlariga ta'alluqli bo'lib, o'z yechimini shu vaqtgacha ham topgan emas.

Ikkinchi muammo – bu, me'moriy obidalarining hozirgi kundagi holati bo'yicha muhandislik kuztuv natijalariga asosan to'liq ma'lumotlarning yo'qligidir. Albatta, ayrim paxsadevor obidalarini bo'yicha ma'lum bir tarixiy ma'lumotlar to'plangan, ammo ularning talabga javob beradigan to'liq "texnik pasportlari" ishlanmagan. To'plangan ma'lumotlar ham, ushbu me'moriy obidalarini ta'mirlash, kuchaytirish va ularning umrboqiyiligini ta'minlash uchun yetarli hisoblanmaydi.

Bugungi kunda ekologiya salbiy ta'sirlari, ya'ni sho'rlanishning oshishi, yer osti suvlarining yuqori ko'tarilganligi, texnogen ta'sirlar, hamda insonlar faoliyatidan kelib chiqadigan ta'sirlar natijasidagi muammolarni yechish ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi me'morchilik inshootlarining qurilish usullari, ularda ishlatilgan qurilish materiallarining turlari, bugungi kundagi texnik holatlari tahlil qilinmagan, ular to'g'risida ma'lumotlar bazasi shakllantirilmagan.

Hozirda Xorazm Ma'mun akademiyasining ilmiy xodimlari ushbu me'moriy obidalarini texnik holatini o'rganish bo'yicha monitoring ishlarini olib bormoqdalar. Xususan, Xorazm va Qoraqalpog'iston tarixiy me'moriy yodgorliklarining texnik holatini aniqlash uchun yosh olimlarni jalb qilgan holda kompleks ilmiy-tajribaviy tadqiqotlar bajarilmoqda. Me'moriy yodgorliklardagi turli xil deformatsiyalarni, atrof – muhitning va insonlar faoliyatining ta'sirlarini o'rganish maqsadida bajarilgan ishlar bo'yicha adabiyotlar va arxiv materiallari asosida yaratilayotgan "Ma'lumotlar bazasi" to'ldirilmoqda.

Bajarilgan tadqiqot mavzusi respublikamiz fanida yangi ilmiy yo'nalishdir, Janubiy Orolbo'yi me'moriy yodgorliklarini saqlash va umrini uzaytirish masalalari bo'yicha bajarilgan ushbu ilmiy tadqiqot ishlari mavjud muammolarga "kompleks" yondoshilganligi bilan farqlanadi. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida paxsadevor me'moriy yodgorliklarning qurilish uslublariga va materiallarining xossalari o'ldirishga oid keng ko'lamda yangi va aniq ma'lumotlar olindi.

Ushbu tadqiqotni bajarish davomida olib borilgan monitoring natijalariga asosan Qoraqalpog‘iston respublikasi hududidagi 70 ta, ya’ni 40 ta arxeologiya va arxitektura yodgorliklari hamda 30 ta ziyoratgohlardagi maqbaralar bo‘yicha ma’lumotlar bazasi shakllantirildi. Shu munosabat bilan ushbu ma’lumotlar bazasidan keng jamoatchilikni foydalanish imkoni yaratildi.

Unda paxsadevor tarixiy obidalarining quyidagi 5 ta asosiy xususiyatlari bo‘yicha aniq o‘lchamlar, chizmalar va tadqiqot natijalari yoritilgan (1-rasm).



2-rasm. 5ta punktdan iborat ma’lumotlar bazasi sxemasi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘istonda turizm sohasining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashadi va me‘moriy yodgorliklarning tarixiy ahamiyatini saqlagan holda muvozanat yaratadi. Ayniqsa, mintaqadagi tarixiy me‘moriy yodgorliklarini saqlash, qayta tiklash va konservatsiya qilishda milliy uslublarni qo‘llagan holda zamonaviy me‘morchilikni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Толстов С.П. Древний Хорезм. Москва, МГУ., 1948.
2. Хўжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Тошкент, 2007.
3. Дурдиева Г.С. Қадимий Хоразм пахсадевор меъморий ёдгорликлари. Хива, 2017.

“JUMA MASJID” MINORASINING YER OSTKI VA YER USTKI QURILMAVIY TUZILISHINI TADQIQ QILISH

arx.f.d., prof. Durdieva G.S., k.i.x. Zargarov A.K.,

tadqiqotchi Saburov K.U.- Xorazm Ma'mun akademiyasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xiva shahrining “Ichan qal’a” muzey qo’riqxonasida joylashgan “Juma masjid” minorasining texnik holatini aniqlash bo’yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.

Аннотация

В данной статье освещены результаты исследования, проведенного по определению технического состояния "Джума Масджид" и минарета, расположенных в музее-заповеднике "Ичан-Кала" города Хивы.

Abstract

This article highlights the results of a study conducted to determine the technical condition of the Juma Masjid and the minaret located in the Ichan-Kala Museum-Reserve in Khiva.

Kalit so'zlar

me'moriy yodgorlik, struktura, masjid, tomyopma, yog'och ustun, monitoring, tadqiqotlar, termit, ta'sirlar, zilzilabardoshlik.

Ключевые слова

архитектурный памятник, структура, мечеть, кровля, деревянная колонна, мониторинг, исследования, термит, воздействия, сейсмостойкость.

Key words

architectural monument, structure, mosque, roof, wooden column, monitoring, research, termite, impacts, seismic resistance.